

TARIXNING JONSIZ GUVOHLARI

Yuldashev X.S

(tarix fani o'qituvchisi)

Madoripov S

(Xo'jaobod xa'lq ta'limi tarix fanlar metodisti, assistenti)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixning jonsiz guvohlari deya e'tirof etilgan tepaliklar haqida, xusasan Alimtepa, Lotkantepa, Dilkushod va boshqalar haqida so'z boradi.*

Kalit so'z: *Arxeologiya, "IPAK YO'LI", Xo'jaobod, Qorasuv, O'sh, Dilkushod, Ayritom, Boburnoma, G'ozitepa, Xon yo'li.*

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Sh.Mirziyoyev

Arxeologiya fani sohasida ham ma'lum siljishlar bo'ldi. Jumladan, 2002-yildan "O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar" yillik to'plami, 2010-yildan esa "O'zbekiston Arxeologiyasi" ilmiy jurnali chop etila boshlandi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bir qator qadimiy shaharlarning yoshlari aniqlanib, ularning yubileylari nishonlandi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev fanimiz darg'alari, maktab yaratgai kan alfomalar bilan bo'lgan uchrashuvda bir qator dolzarb masalalarni s o'tdi, Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoli ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yai takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 9 ta ill tadqiqot muassasasi Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi, qator il tashkilotlar qayta tashkil etildi, Fanlar akademiyasining fan yo'nalisil bo'yicha 3 ta bo'limi va Navoiy bo'limi tashkil etildi, O'zbekistonning yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyati qayta yo'lga qo'yildi

"QADIMGI XON YO'LI" deb atalgan "IPAK YO'LI" ustida joylashgan "Tarixning jonsiz guvohlari" bo'lmish tepaliklar haqida ma'lumotlarni sizlarga aytmoqchiman. Bu tepaliklar Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida joylashgan ayrim tepaliklar haqida va ulardan topilgan topilmalar haqida ma'lumotla beraman. Tarixning guvohligicha mazkur tepaliklar milloddan avvalgi asrlarda bunyod etilgan. Millodning XVI asrigacha aloqa vositasini, qal'a xizmatini, shuningdek bekat vazifasini bajargan.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyatning ishi bilan shug'ullanish natijasida tepaliklarning bunyod etish sabablari, ularning vazifasi, ahamiyatini aniqlashga muayassar bo'lingan.

Xo'jaobod tumanidagi barchamizga ma'lum bo'lgan tepaliklarni sanab o'taylik.

Qardosh Qirg'iziston respublikasining Qorasuv tumanidan O'sh shahriga kiraverishda "ALIMTEPA" (Aeroport atrofida) tepaligi bor. Shu tepalikdan kun botish tomoniga yurilsa, quyidagi tepaliklarga duch kelinadi. Qupa qishlog'ining hozirgi (Yangi Farg'ona) "BILAVUR" tepaligidan fanlar akademiyasi Leningrad arxeologiya institutining professori "Заднепровский" bir necha yillar davomida qazish ishlarini olib borib, kamon, o'q, zargarlik buyumlari, ayollar taqinchoqlari, devorga o'yib ishlangan har xil naqsh qoldiqlari topilgan. Bundan tashqari 2,5 gektarcha keladigan yerning aylanasi 3-4 metrlik g'isht devor bilan o'ralganligi aniqlangan, devorning balandligi 7-8 metr bo'lgan. Demak qadimda bu yer katta shahar bo'lgan.

Dilkushod qishlog'ining "LOTKANTEPA" qadimda katta qal'a bo'lib uning atrofida ulkan saroy barpo etilgan. Lotkentepa haqida aniq ma'lumot Z.M. Boburning mashhur "BOBURNOMA" asarid quyidgi so'zlar berilgan: "O'shqa yaqin yetgan mahalda xabar topildikim, muholiflar O'sh novaxasida tura olmay, Raboti SARXANG, urchinni, sarig'akim, O'shning shimolidadur, ul oqshom Lotkantkentga tushildi". Boburmirzo Andijondan O'shga har gal o'tganda Lotkanda albatta 2-3 kun hordiq chiqararkan. Chakalakzor, butazor va qamishzorlar oralab ov qilib charchagan paytlarida tog' cho'qqisiga ko'tarilib, ona-yurt go'zalligini zavq bilan tomosha qilib dilbar havosiga maftub bo'lib, dillarni shod etuvchi joy deb ta'riflab, keyinchalik bu yerlar "DILKUSHOD" deb nomlagan. Temuriylarni inqirozga uchrashi, Boburning Shaybonixon tomonidan yengilishi va Lotkan qal'asini aylanishiga olib keldi. Chunki lotkantliklar ozchilik bo'lsa ham bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatganlar, natijada g'azablangan Shaybonixon navkarlari qal'adagi hamma odamni qilich tig'idan o'tkazadi, qal'ani esa yer bilan yakson qilib o't qo'yib yuboradi. XX asrning 2-yarmida qishloq xo'jaligi uchun suv manbai zarur bo'lganda "AYRITOM" arig'ini kengaytirish va O'sh soyini, "OQBO'RA" suvini shu kanal orqali Dilkushod yerlariga burish zarur bo'lib qoldi. Tepalikni surayotgan buldozerni po'lat tumshog'ini qandaydir xumni surib borgan va shu tariqa bu yerdan xumcha to'la tanga pullar, yongan yog'och qoldiqlari, Samarqandning ko'hna binolarida uchraydigan koshin parchalari, sopol siniqlari, yorg'uchoq topilgan. Ayniqsa bu yerdan bosh suyagi tibbiyot uchun katta ahamiyatga egadir. Bu bosh suyagi uch joyidan mis qadoq bilan birlashtirilgan. Hozirgi tibbiyotda ham xavfli bo'lgan miya operatsiyasi bir vaqtlar muvaffaqiyatli amalga oshirgandan dalolat beradi. Biz uchun eng ahamiyatli topilmalardan biri tanga pullardir. Akademik arxeologik Евгенивич Массоннинг bergan ma'lumotlarga qaraganda, XVI asrda Farg'ona va Andijon bozorlarida ishlatilgan, tangallardagi yozuvlarda "Samarqand zarbi", "Aksi zarbi" degan so'zlar bor. Bu esa tangallar zarb qilingan joydan darak beradi.

Yana shunday tepaliklardan biri “G’OZTEPA” hozirgi Orday qishlog’ida joylashgan.G’oztepada xijriy 561-yilda O’zgan shahrida hokim ibn Arslon Hoqon tomonidan zarb qilingan ko’plab noyob tanga pullar topilgan.

Tarixiy dalilarga asoslanib shuni aytish lozimki, tumanimizda joylashgan tepaliklarning har biri o’ziga xos ahamiyatga egadir.Ularni o’rganish yurtimiz tarixini boyitishga munosib xissa bo’lib qo’shilgan.Qadimgi “XON YO’LI” deb atalgan ipak yo’li ustida joylashgan.Tarixni tilsiz guvohlari bo’lmish bu tepaliklardan Movarounahrni Xitoy davlati bilan birlashtirib karvon yo’li o’tgan.

O’shdan “BILAVUR” tepa orqali Lotkent qal’asiga, Dilkushod qishlog’i orqali “GOZTEPA” ga undan keyin “CHILMAYRAM” , Imom-ota qishlog’i hamda “NAYMAN” orqali Andijonga o’tib ketilgan.Shu yo’l orqali savdo-sotiq rivojlangan.

Tarixning tilsiz guvohlari bo’lmish bu tepaliklar hali bizga juda ko’p sirlarni ochib berishi mumkin.Shuning uchun ularni muhofazaga olmoq kerak.Shunda biz yoshlar tarixiy madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash, hissa qo’shgan va ularni e’zozlab, saqlagan bo’lar edik.Men tarixchi sifatida ushbu tepaliklarni arxeologik olimlar tomonidan qayta o’rganishlarini iltimos qilib qolardim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. T.Ehsonovning maqolasi “Fan va turmush” jurnali 1972-yil “ O’zbekiston fan nashriyoti”
2. Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni
3. “Shonli mehnat” jurnali T.Jalolovning “Tarixiy yodgorliklari” maqolasi 1983-yil 18-mart